

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

**1. Loyihaning turi:** № 149738/103-sonli shartnoma.

**2. Loyihaning turkumi:** Ichki issiqlik tizimini gidravlika yordamida yuvish xizmati ko‘rsatish bo‘yicha ("QUVVAT GIDRO-SINOV" xususiy korxonasi)

**3. Loyihaning ishlab chiquvchisi va “E-huquqshunos” elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Farg‘ona shahar Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

**4. Loyiha bo‘yicha taklif:**

Loyiha amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra,

**X U L O S A:**

Mazkur buyruq loyihasi mazmuni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

**Markaz bosh yuriskonsulti:**



**S.Raximov**

*2022-yil 29-sentabr*

**Ichki issiqlik tizimini gidravlika yordamida yuvish xizmati ko'rsatish bo'yicha****№ 149738/103 -sonli shartnoma.**

Ushbu shartnoma bir tomondan "QUVVAT GIDRO-SINOV" xususiy korxonasi nomidan boshqaruv raisi Sh.I.Zakirov vakilligida kelgusida "Xizmat ko'rsatuvchi" va ikkinchi tomondan Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi nomidan birlashma boshlig'i M.N.Shokirov vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar.

**1. Shartnoma mazmuni.**

1.1. "Xizmat ko'rsatuvchi" shartnomada belgilangan shartlar va tartiblarga amal etgan xolda, "BUYuRTMACHi" tomonidan tasdiqlangan ob'ektlar unga tegishli bo'lgan binolarni belgilangan belgilangan tartibida ichiki issiqlik tizimini yuvish bosim yordamida sinovdan o'tkazish "xizmat" deb yuritiladi, "BUYuRTMACHi" esa "Xizmat ko'rsatuvchi"ga o'z muddatida mazkur xizmat uchun belgilangan xaq to'lash majburiyatini oladi.

**2. Tomonlarning majburiyati.**

2.1. "Xizmat ko'rsatuvchi" ko'rsatilgan ichiki issiqlik tizimini yuvish bosim yordamida sinovdan o'tkazish xizmati 10 kun muddat ichida "BUYuRTMACHi" tomondan belgilangan ob'ektlarga xizmat hamda bajargan ishlar umumlashtirgan xolda hisobvara-q-fakturalarni "BUYuRTMACHi"ga taqdim qiladi.

2.2. "Xizmat ko'rsatuvchi" "BUYuRTMACHi" tomondan ob'ektlar sonini yoki manzilini o'zgartirmaydi, belgilangan ob'ektlarga to'liq jixoz va transporti yetib borish kerak.

2.3. "BUYuRTMACHi" ko'rsatilgan xizmati uchun "Xizmat ko'rsatuvchi"ga ushbu shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatib o'tilgan haqni to'laydi.

**3. Shartnoma summasi va xisob-kitoblar tartibi.**

3.1 Shartnoma tuzilgan kundagi uning umumiy qiymati **8 827,1 p/m** uchun **2 000** so'mdan kelishilgan xolda jami **17 654 200** (*o'n yetti million olti yuz ellik to'rt ming ikki yuz*) so'mni tashkil qiladi. Ish hajmi o'zgarishiga qarab shartnomaning qiymati ham o'zgarishi mumkin, bunda tomonlar shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzishlari shart.

3.2 "BUYuRTMACHi" shartnoma imzolanib, muhrlangandan so'ng 10 bank ish kuni ichida shartnoma qiymatining 30 foizi miqdorida "Xizmat ko'rsatuvchi"ga oldindan pul o'kazib beradi.

3.3 "Xizmat ko'rsatuvchi" tomonidan ko'rsatilgan ichki tizimini sinovdan o'tkazish va yuvish xizmati to'g'risidagi tovar-transport yuk xatini belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, umumlashtirgan xolda hisobvara-q-fakturalarni "BUYuRTMACHi"ga taqdim qilingandan so'ng ichki tizimini sinovdan o'tkazish va yuvish xizmati uchun maqsadli mablag'lar moliyalashgandan so'ng 30 kun ichida yakuniy hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

**4. Tomonlarning javobgarligi.**

4.1 “Xizmat ko‘rsatuvchi” tomonidan xizmatlarni belgilangan ob'ektlarga, ya'ni xizmat davomida uning sifatiga, miqdoriga yetkazilgan zararni to‘liq hajmda qoplab beradi yoki “Xizmat ko‘rsatuvchi” o‘z mablag‘i hisobidan xizmatlarni yangidan qilib beradi.

4.2 “Xizmat ko‘rsatuvchi” tomonidan xizmatlar belgilangan ob'ektlarga o‘z vaqtida va sifatli qilib qilinmasa, yetkazilgan zararining 0.5 foizi miqdorida “BUYuRTMACHi”ga jarima to‘laydi lekin shartnoma umumiy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

4.3 “BUYuRTMACHi” ko‘rsatilgan xizmatlari uchun ushbu shartnomaning 3.3-bandida ko‘rsatib o‘tilgan muddatda hisob-kitob qilmasa, kechiktirilgan xar bir kun uchun to‘lov muddati kechikkan summaning 0.2 foizi miqdorida “Xizmat ko‘rsatuvchi”ga jarima to‘laydi, lekin jarimaning umumiy miqdori bajarilmagan majburiyat qiymatining 50 foizidan ortib ketmasligi lozim.

#### **5. Fors-major xolatlar.**

5.1. Tomonlar shartnoma tuzilgandan so‘ng fors-major xolatlar (engib bo‘lmas kuchlar, tabiiy ofatlar, zilzila, epidemiya tarqalishi, xarbiy xarakatlarning vujudga kelishi) yuzaga kelganda majburiyatlardan qisman yoki to‘liq ozod etilishi mumkin.

5.2. Tomonlar fors-major xolatlar yuzaga kelganda ushbu xolatlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar bilan birgalikda bir-birini 3 kun muddat ichida xabardor qilishlari zarur.

5.3. Fors-major xolatlar yuzaga kelganini tasdiqlovchi ma'lumotlar bo‘lmasa, javobgar tomon xaqdor tomonga yetkazilgan zararni koplav beradi.

#### **6. Nizolarni xal qilish tartibi.**

6.1. Tomonlar yuzaga kelgan nizo va e'tirozlarni o‘zaro xurmat yo‘li bilan xal qiladilar. Agar o‘zaro kelishuvga erisha olmasalar, joylardagi Xo‘jalik sudiga murojaat etiladi.

6.2. Tomonlar bir-biriga 1 oy muddat ichida olingan shikoyat va e'tirozlar to‘g‘risidagi murojaatlarga javob berishga majbur.

#### **7. Boshqa shartlar.**

7.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, shartnoma bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

7.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta‘minlaydilar.

7.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o‘zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog‘liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishida pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo‘l qo‘yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va‘da qilinmaganligini, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko‘radi.

7.4. Ushbu holat bo‘yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

7.5. Tarafning talabi bo‘yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo‘yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to‘xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

#### **8. Shartnomaning amal qilish muddati**

8.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

8.2. Shartnoma hududiy G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabr kunigacha amal qiladi.

### 9. Tomonlarning pochta manzili va rekvizitlari

#### “Xizmat ko'rsatuvchi ”

#### “Buyurtmachi”

#### “QUVVAT GIDRO-SINOV”

xususiy korxonasi

Farg'ona viloyat, Farg'ona shahar,

Al-Xorazmiy ko'chasi 2 uy

H/r: 20208000305445305001

MFO: 00395

Bank: Ziirat bank Toshkent sh

INN: 308927667

telefon: +998 99 550 02-50

#### Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasi

Farg'ona shahar, Qirlola ko'chasi 2-uy

Shh/r 400322860304017072120054016

STIR: 200145074 OKONX: 97600

Farg'ona shahar bo'yicha G'aznachilik

boshqarmasi

H/r: 23402000300100001010

Markaziy bank Toshkent shahar HKKM


MFO: 00014 STIR: 201122919

“QUVVAT GIDRO-SINOV” xususiy

korxonasi rahbari

Sh.I.zakirov



|   |  |                                    |
|---|--|------------------------------------|
|  | Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan.                                 |                                    |
|   | Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang. |                                    |
|   | Imzolovchi F.I.SH.   | MUXIDDIN SHOKIROV NAZIRG'ULOMOVICH |
|   | Imzolangan sana  | 29 сен 2022 16:35                  |
|   | Hujjat kodi  | VW2542037785                       |
| Huloşa kodi   | OX2055741146   |                                    |



28.09.2022 йил 14:50

Фарғона шаҳри

Фарғона шаҳар тиббиёт бирлашмаси Иситиш тизимини ювиш, босимни текшириш ва профилактика хизмати 8827,1 п/м учун №\_149738 лот рақамли эълоннинг 23.09.2022 йил кунги электрон баённомаси муҳокама натижалари тўғрисидаги харид комиссиясининг тегишли мажлиси

### БАЁННОМА ХУЛОСАСИ

1. Фарғона шаҳар тиббиёт бирлашмаси Иситиш тизимини ювиш, босимни текшириш ва профилактика хизмати 8827,1 п/м учун бюджетдан ташқари маблағлар ҳисоби ва харажатларнинг иқтисодий таснифи бўйича мос келади.
2. Фарғона шаҳар тиббиёт бирлашмаси Иситиш тизимини ювиш, босимни текшириш ва профилактика хизмати 23.09.2022 йил кунги тузилган харид комиссиясининг электрон баённомаси йўлланган тижорат таклифларни баҳолаш асосида тузилган.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрелдаги “**Давлат харидлари тўғрисида**”ги (ЎРҚ-684-сон) Қонуннинг 7-боб 62-моддасининг 3 ва 7-бандарига асосан [etender.uzex.uz](http://etender.uzex.uz) махсус ахборот порталидаги 23.09.2022 йил кунги тузилган харид комиссияси электрон баённомасининг 2 кунлик муҳокама вақтида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли электрон баённомада қолиб деб тошилган "QUVVAT GIDRO-SINOV" xususiy korxonasi билан белгиланган тартибда **17 654 200** (ўн етти миллион олти юз эллик тўрт минг икки юз) сўмлик шартнома тузилсин.

Комиссия аъзолари:

|  |                 |
|--|-----------------|
|  | Ш.Ю. Хусанбаев  |
|  | Ф.К. Усмонов    |
|  | К.Э. Мадалиев   |
|  | С.А. Адхамжонов |
|  | Е.А. Мудрая     |

Котиба: